

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETIDA 15-16-SENTABR

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY-TEXNIK
KONFERENSIYA MATERIALLARI

2-qism

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION, AND ECONOMY IN THE
FIELD OF CONSTRUCTION AND ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL REPUBLICAN CONFERENCE

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ И
ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

URGANCH-2025

TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A.Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R.Q. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

plitalari;ekstrudirovka qilingan polietilen ko'pik;bazalt jinslardan yasalgan issiqlik izolyatsiya plitalari;ko'pikli shisha plitalar (blokлар) va boshqalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Golovanova LA Uy-joy qurilishida energiya tejash. Xabarovsk 2005
2. Полистиролбетон – качественно новый строительный материал
URL: <http://elport.ru> (Дата обращения 01.09.14) [1]
3. Вентилируемые фасады краспан URL: <http://mastersbuilder.ru> (Дата обращения 01.06.14)[2]
4. www.ziyonet.uz

JANUBIY OROL BO'YI YER OSTI SUVLARINING SHO'RLANISH DARAJASINI TADQIQ QILISH TARAQQIYOTINING USTUVOR YO'NALISHLARI

Qurbanov Saparboy Matyaqubovich

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti
"Qurilish" kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada Janubiy Orolbo'yi hududida yer osti suvlarining sho'rlanish darajasini tadqiq qilish masalalari yoritilgan. Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolar, jumladan, suv resurslarining kamayishi, tuproq va suvlarning sho'rlanish jarayonlari hamda ularning mintaqaning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, sho'rlanishni kamaytirish hamda hududda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы исследования степени засоления подземных вод в Южном Приаралье. Анализируются экологические проблемы, возникшие в результате усыхания Аральского моря, в частности сокращение водных ресурсов, процессы засоления почвы и воды, а также их влияние на экологическое и социально-экономическое развитие региона. Научно-исследовательские работы, направленные на рациональное использование водных ресурсов, снижение засоления и обеспечение устойчивого развития региона, определены как приоритетное направление.

Annotation

This article examines the issues of studying the salinization level of groundwater in the Southern Aral Sea region. The ecological problems caused by the drying up of the Aral Sea are analyzed, in particular the reduction of water resources, the processes of soil and water salinization, as well as their impact on the ecological and socio-economic development of the region. Scientific research aimed at the rational use of water resources, reduction of salinity, and ensuring sustainable development in the area is defined as a priority direction.

Kalit soʻzlar

Janubiy Orolboʻyi, yer osti suvlari, shoʻrlanish, ekologik muammo, suv tanqisligi, suv resurslari, barqaror rivojlanish.

Ключевые слова

Южное Приаралье, подземные воды, засоление, экологическая проблема, дефицит воды, водные ресурсы, устойчивое развитие.

Keywords

Southern Aral Sea region, groundwater, salinization, environmental problem, water scarcity, water resources, sustainable development.

Kirish

Suv - hayot ramzi. U shuningdek salomatlik, oziq-ovqat, energiya va atrof-muhit uchun eng muhim resursdir. Biroq bu muhim hayotiy resursning ham zaxiralari cheklangan. Suvni tejab ishlatishni oʻrganmas ekanmiz, yaqin kelajakda buning alamli oqibatlari bilan yashashimizga toʻgʻri keladi.

Asosiy qism

Bugungi kunga kelib, regional ekologik muammodan global ekologik muammoga aylangan Orol va Orolboʻyi mintaqasi muammosi nafaqat Oʻrta Osiyo, balki, jahon jamoatchiligining ham eʼtiborini tortmoqda. Bu borada, Prezident Sh. Mirziyayevning qator nufuzli tashkilotlar va davlatlar rahbarlarining yigʻilishlarida soʻzlagan nutqlari hamda mazkur muammoga bagʻishlangan xalqaro konferensiyalarning oʻtkazilishi mavzuning oʻta dolzarbligidan dalolat beradi [1;2]

Oʻrta Osiyoda yangi yerlarning oʻzlashtirilishi, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining sugʻorishga ishlatilishidan oqimning keskin kamayishi, suv va suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik sababli yer sharidagi yirik suv havzalaridan birining qurib borishiga sharoit yaratdi va buning oqibatida mintaqada ekologiya oʻzgarib yer va suv resurslarining shoʻrlanish darajasi oshib bormoqda. Janubiy Orol

bo'yi mintaqasida hozirgi davrda suv tanqisligi va sho'rlanishi o'rganish tizimga solish, suv resurslaridan samarali foydalanishni ilmiy -texnik jihatdan asoslash va tadqiq etish daolzarb muammo sanaladi [3].

Adabiyotlar tahlili

Insoniyat taraqqiyotida fan-texnikaning rivojlanishi va jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning keskinlashishi oqibatida butun dunyoda turli xil ekologik muammolar yuzaga kela boshladi. Jumladan, ozon tuynugining yuzaga kelishi, dunyoning o'rtacha havo harorati me'yoridan oshayotganligi, atmosfera havosining ifloslanishi, dunyo okeani sathining ko'tarilishi, ichimlik suvining yetishmasligi, urush va tinchlik muammosi, tuproqlarning sho'rlanishi muammosi, cho'llashish muammosi va hokazolar.

Ekologik muammolar ko'lamiga ko'ra mahalliy, regional va global muammolarga bo'linadi. Mahalliy muammolarni e'tiborga olmasdan, ularga tegishli chora ko'rilmasa regional, bora-bora global muammoga aylanishi muqarrar.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarini buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi [4].

Metodologiya

Hozirgi kunda regional ekologik muammodan global ekologik muammoga aylanib ulgurgan Orol va Orolbo'yi muammosi O'rta Osiyoda yangi yerlarning o'zlashtirilishi va suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik oqibatida, sug'orma dehqonchilikni yanada rivojlantirish, buning uchun ko'plab suv omborlari va kanallarning qurilishi, suvning bug'lanishga va yer ostiga sizilishiga sarf bo'lishi, suvdan maishiy va sanoat ko'lamida foydalanish ehtiyojining davomiy o'sib borishi, shunirigdek, suv taqchil bo'lgan yillarning muntazam takrorlanib turishi natijasida yuzaga kela boshladi. Shu sababli O'rta Osiyoning eng yirik daryolari - Amudaryo va Sirdaryo yildan-yilga Orol dengiziga kam suv keltira boshladi. Natijada dengiz sathi pasayib, maydonining keskin qisqarishiga olib keldi [5].

Muhokama va natijalar

Ma'lumki, tabiat komponentlari bir-biri bilan doimo aloqada va bog'liq holda rivojlanadi. Agar komponentlarning bittasiga ta'sir qilinsa, boshqalarining o'zgarishiga va buning natijasida turli xil tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Birgina suv komponentiga ko'rsatilgan ta'sir va undan noto'g'ri foydalanish tufayli yuzaga kelgan Orol va Orolbo'yi muammosi va uning tabiatidagi o'zgarishlarni o'rganish hozirgi vaqtda o'ta dolzarbligi bilan ajralib turadi [6;7].

Orol va Orolbo'yi tabiiy sharoiti inson xo'jalik faoliyati natijasida o'zgarishlarga tez uchrayotgan hududlar sirasiga kiradi. Orol va Orolbo'yi muammosining yuzaga kelishiga Orol dengizi sathining pasayishi emas, balki inson xo'jalik faoliyati asosiy sabablardan bo'lib, birinchi navbatda sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va unda suvdan oqilona foydalanmaslikdir. Bu ekologik vaziyat oxir-oqibat aholiga, uning yashash sharoiti va sog'lig'iga ta'sir etadi [8;9;10].

Xulosa va takliflar

Orolbo'yi aholisi sog'lig'ining yomonlashishiga sabab sifatida:

-Orolbo'yi regionining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi va mahalliy aholining turmush sharoiti yomonligi;

-atmosfera havosining Orol dengizi qurigan tubidan uchgan chang-tuzlar bilan ifloslanishi;

-inson xo'jalik faoliyati natijasida yer usti va yer osti suvlarining zaharli birikmalar bilan ifloslanishi;

-toza ichimlik suv bilan to'la ta'minlanmaganligi;

-yilning ko'p davrida shimoli-sharqiy shamollarning esishi tufayli havo ifloslanishi kabilarni misol keltirish mumkin.

Iqlimi

Atrofdagi cho'llarga qaraganda Orol yilning yog'in miqdori unchalik katta emas (100 mm). Shunga qaramay, Orol dengizi chorvachilikning asosi hisoblangan cho'l yaylovlariga katta foyda keltirgan. Sababi dengizdan katta miqdorda suv bug'lanib, atrofdagi hududlarga taqsimlangan va havoning namligi tez oshgan va

o'simliklarning o'sishiga sharoit yaratgan. Dengizning bu yumshatuvchi ta'siri 50- 80 km ga, janubda esa 200-300 km gacha yoyilgan. Oxirgi 15-20 yil davomida yoz faslidagi havoning nisbiy namligi o'rtacha 7-10 % ga pasaygan. O'rtacha yillik yog'in miqdori 22 mm (15 %) ga kamaygan.

Mintaqaning suv rejimi

Yer usti suvlarining o'zgarishi natijasida yer osti suvlarining rejimi ham tubdan o'zgardi. Chunki, yer osti suvlarining asosiy to'yinish manbai dengiz va ko'plab o'zan hamda oqimlar suvining sizilishi, qisman atmosfera yog'inlaridan iborat edi. Ilgari yer osti suvlarining sathi 1-1,5 m chuqurlikda joylashgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bu ko'rsatkich 4-5 m , ayrim hududlarda esa 9-10 m chuqurlikda joylashganligi aniqlangan.

Yer osti suvlari rejimining o'zgarishi, ularning minerallasish darajasining o'zgarishiga olib keldi. Natijada kam va o'rtacha minerallasganlik ustun bo'lgan yer osti suvlari hozirgi vaqtda kuchli va juda kuchli minerallasgan. Bu suvlarning minerallasish darajasi 3-5 g/l, ayrim joylarda 5-10 g/l ni tashkil etadi. Ularning minerallasuvida bug'lanish asosiy rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. ****Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi****. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Гофуров А.М., Саттаров У. ****Гидрогеология ва гидрохимия асослари****. – Тошкент: ТДТУ, 2018.
3. Камалов Б. ****Орол денгизи ва Оролбўйи экологик муаммолари****. – Тошкент: Фан, 2010.
4. Micklin P. ****The Aral Sea Disaster****. Annual Review of Earth and Planetary Sciences, 2007, Vol. 35, pp. 47–72.
5. Glantz M.H. (ed.). ****Aral Sea Basin: A Critical Environmental Zone****. United Nations University Press, 1999.
6. Zonn I.S., Glantz M.H., Kostianoy A.G., Kosarev A.N. ****The Aral Sea Encyclopedia****. Springer, 2009.